

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SIFATNI
BOSHQARISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA
BAHOLASH TIZIMLARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri

Achilov Obid Muzrobovich

+99893 792 91 71

Email: achilovobid544@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim sifatini boshqarish va baholashning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot doirasida sifat tushunchasi, uning strukturaviy komponentlari, zamonaviy baholash tizimlari va ularni amalda qo'llash yo'llari tahlil etilgan. Ilmiy-nazariy tahlil asosida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim sifati, baholash mezonlari, pedagogik jarayon, professional kompetensiya, rivojlantiruvchi muhit, sifat menejmenti.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные вопросы управления и оценки качества дошкольного образования. В рамках исследования проанализированы понятие качества, его структурные компоненты, современные системы оценивания и способы их практического применения. На основе научно-теоретического анализа разработаны практические рекомендации по совершенствованию деятельности дошкольных образовательных учреждений.

Ключевые слова: качество дошкольного образования, критерии оценки, педагогический процесс, профессиональная компетентность, развивающая среда, менеджмент качества.

***Abstract:** The article examines current issues of quality management and assessment in preschool education. Within the framework of the research, the concept of quality, its structural components, modern assessment systems and ways of their practical application are analyzed. Based on scientific and theoretical analysis, practical recommendations for improving the activities of preschool educational institutions have been developed.*

***Keywords:** preschool education quality, assessment criteria, pedagogical process, professional competence, developmental environment, quality management.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining sezgir davrlari to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonini talab qiladi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash, uni ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholash va doimiy takomillashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy ta'lim muhitini yaratish va kadrlar salohiyatini kuchaytirish vazifalarini belgilab berdi. Biroq amaliyotda sifat mezonlarini aniqlash, baholash mexanizmlarini joriy etish va monitoring tizimini tashkil etish masalalari hali ham to'liq hal etilmagan.[1:28]

Tadqiqot maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy yondashuvlar va baholash mezonlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: maktabgacha ta'lim sifati kategoriyasining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, sifatni baholashning strukturaviy komponentlari va mezonlarini belgilash, xalqaro tajribadagi eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish, milliy ta'lim tizimini

takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

Sifat kategoriyasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni bir tomonlama talqin qilish ilmiy jihatdan noto'g'ridir. Pedagogika fanida sifat masalasi turli davrlarda va turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar sifatni statik holat emas, balki doimiy takomillashuv jarayoni sifatida qarashadi. Maktabgacha ta'lim kontekstida sifat bu ta'lim-tarbiya jarayonining belgilangan maqsadlarga erishish darajasi, bolalarning rivojlanish ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va jamiyat talablariga muvofiqlik ko'rsatkichidir.

Maktabgacha ta'lim sifati uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi va ularning o'zaro bog'liqligi ta'lim tizimining umumiy samaradorligini belgilaydi. Struktur sifati ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik, kadriy va tashkiliy shartlarni bildiradi. Bu komponent zamonaviy talablarga javob beradigan bino va xonalar, didaktik materiallar va o'yin jihozlari, malakali pedagog kadrlar, optimal guruh tarkiblari, ta'lim dasturlari va metodik ta'minotni qamrab oladi. Struktur sifati ta'lim jarayoni uchun zarur poydevor yaratadi, ammo o'z-o'zidan yuqori natijalarni kafolatlamaydi.

Jarayon sifati bevosita ta'lim-tarbiya faoliyatining mazmuni va tashkili bilan bog'liq bo'lgan markaziy komponent hisoblanadi. Bu qism pedagog-bola o'zaro ta'sirining demokratik va hurmat asosida qurilishi, ta'limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirish usullarining zamonaviy pedagogik talablarga muvofiqligi, bolalarning faolligi va mustaqilligini ta'minlash, individual yondashuvning amalga oshirilishi, rivojlantiruvchi muhitning yaratilishi va uning maqsadli foydalanilishini o'z ichiga oladi. Jarayon sifati bevosita bolalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hal qiluvchi omil bo'lib, pedagog kasbiy kompetensiyasi va uning faoliyat samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Natija sifati ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib, bolalarning jismoniy, intellektual, ijtimoiy-emosional va ma'naviy rivojlanish

darajasi, yosh me'yorlariga mos bilim va ko'nikmalarni egallash holati, ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi va maktabga tayyorgarlik holati orqali aniqlanadi. Natija sifati struktur va jarayon komponentlarining samaradorligini aks ettiruvchi integral ko'rsatkich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatni ta'minlash bir necha asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim. Komplekslik tamoyili sifat ta'minlashning barcha komponentlarini o'zaro bog'liq holda takomillashtirishni talab qiladi. Davomiylik tamoyili sifat ta'minlashni bir martalik tadbirlar emas, balki doimiy va tizimli jarayon sifatida amalga oshirishni nazarda tutadi. Ishtirokchilik tamoyili pedagoglar, ota-onalar, ma'muriyat va boshqa manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini ta'kidlaydi. Ilmiylik tamoyili sifatni baholash va takomillashtirishning ilmiy asoslangan mezonlar, zamonaviy tadqiqotlar natijalari va eng yaxshi amaliyot tajribasiga tayanishini talab qiladi. Inson markazlilik tamoyili barcha tashkiliy qarorlar va pedagogik faoliyatning bolaning manfaatlari va rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqishini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim sifatini ob'ektiv baholash uchun aniq mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi zarur. Ilmiy adabiyotlar tahlili va pedagogik amaliyot o'rganish asosida quyidagi mezonlar tizimi ishlab chiqildi. Kadr ta'minoti va professional rivojlanish mezonlari pedagog xodimlarning malaka darajasini baholashni nazarda tutadi. Oliy pedagogik ma'lumotga ega xodimlar ulushi kamida yetmish foizni tashkil etishi tavsiya etiladi. Toifali pedagog xodimlar, xususan birinchi va oliy toifali pedagoglar kamida ellik foizni tashkil etishi kerak. Zamonaviy ta'lim tizimi talablari pedagog kadrlarning doimiy professional rivojlanishini talab qiladi, shuning uchun so'nggi uch yilda malaka oshirish kurslarida qatnashganlar foizi yuz foizni tashkil etishi lozim. Pedagog xodimlarning professional kompetensiyalari qatoriga bolalar psixologiyasi va yosh xususiyatlarini chuqur bilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari, bolalar bilan o'zaro ta'sirda individual-differensiallashtirilgan yondashuvni amalga oshirish qobiliyati, ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalari, o'z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya qobiliyati kiradi.

Moddiy-texnik baza va rivojlantiruvchi muhit mezonlari ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan material shartlarni baholashga qaratilgan. Bino va jihozlar qatori guruh xonalarining maydoni va jihozlanishi, har bir bolaga kamida ikki kvadrat metr ichki makon ajratilishi lozim. Sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqlik yorug'lik, havoning tarkibi va harorat rejimini o'z ichiga oladi. Xavfsizlik talablarining ta'minlanishi evakuatsiya yo'llari va yong'inga qarshi tizimlarning mavjudligini nazarda tutadi. Sport va o'yin maydonchalarining mavjudligi va yaxshi holatda bo'lishi zarur. Didaktik materiallar va o'yin jihozlari rivojlantiruvchi o'yinlar va qo'llanmalarining yetarlilik darajasini, zamonaviy texnik vositalar jumladan interaktiv doska va multimedia qurilmalarning mavjudligini, bolalar adabiyoti fondining boyligini va uning muntazam yangilanishini, o'yin materiallarining xilma-xilligi va bolalar yoshiga muvofiqligini o'z ichiga oladi.

Rivojlantiruvchi makon alohida e'tibor talab qiladi. Guruh xonasida turli faoliyat turlari uchun zonalarning ajratilganligi muhim ahamiyatga ega. O'yin zonasi, ijodiyot zonasi, tinchlik zonasi va ilmiy-tadqiqot zonasi bo'lishi kerak. Materiallarning bolalar uchun ochiq va qulay joylashtirilishi ularning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Muhitning moslashuvchanligi bolalar ehtiyojiga qarab o'zgartirish imkoniyatini anglatadi. Muhitning estetik jihatlari va rag'batlantiruvchi xususiyati bolalarning kreativligini va bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ta'lim jarayonining tashkili mezonlari pedagog faoliyatining bevosita sifatini baholashga qaratilgan. Ta'lim dasturlari va ish rejasi davlat ta'lim standartlariga to'liq muvofiq bo'lishi, dasturning barcha rivojlanish yo'nalishlarini qamrab olishi, bolalarning yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlarini hisobga olishi, nazariya va amaliyotning muvozanatda bo'lishini ta'minlashi kerak. Pedagogik jarayonning tashkili mashg'ulotlarning to'g'ri tuzilishi va samarali metodikasini, bolalar faolligini ta'minlovchi usullar jumladan o'yin, loyiha va tadqiqot faoliyatini, guruh va individual ish shakllarining maqsadga muvofiq qo'llanilishini, vaqtdan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Pedagog-bola o'zaro ta'siri demokratik muloqot uslubi,

bolalarning fikr va takliflarini tinglash, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ijobiy emotsional muhitning yaratilishi, bolalarning mustaqilligini rivojlantirish imkoniyatlarini berishni o'z ichiga oladi. Bolalar rivojlanishining natijalari mezonlari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini bevosita ko'rsatadi. Jismoniy rivojlanish yirik va mayda motorika rivojlanish darajasi, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishi, koordinatsiya va muvozanat ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Intellektual rivojlanish idrok jarayonlari rivojlanishi, nutq rivojlanish darajasi, matematik tasavvurlar va atrof-muhit haqida bilimlar tizimi orqali aniqlanadi. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish o'zini anglash va o'z his-tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalari, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish ko'nikmalari, hamkorlik va jamoa bo'lib ishlash qobiliyati, empatiya va boshqalarga g'amxo'rlik qilish ko'nikmasi orqali baholanadi. Ijodiy rivojlanish tasviriy faoliyat ko'nikmalari, musiqiy qobiliyatlar, konstruktiv faoliyat ko'nikmalari va ijodiy fikrlash orqali aniqlanadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik mezonlari ta'lim jarayonida oilaning ishtirokini baholashga qaratilgan. Muloqot tizimi muntazam uchrashuvlar va ota-onalar yig'ilishlari, individual konsultatsiyalar tizimi, axborot ta'minoti va ota-onalarning ta'lim jarayoniga kirish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Ota-onalarning qoniqish darajasi ta'lim-tarbiya jarayonidan qoniqish, pedagoglar bilan muloqotdan qoniqish, bolaning rivojlanish dinamikasidan mamnunlik va muassasani tanish va do'stlariga tavsiya qilish tayyorligi orqali aniqlanadi. Jahon amaliyotida maktabgacha ta'lim sifatini baholashning bir necha yetakchi tizimlari mavjud. ECERS (Early Childhood Environment Rating Scale) tizimi Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Bu tizim maktabgacha ta'lim muhitini yettita asosiy yo'nalish bo'yicha kompleks baholashni nazarda tutadi: makon va jihozlar, shaxsiy g'amxo'rlik, nutq va fikrlash, faoliyat, o'zaro munosabatlar, dastur tuzilishi, ota-onalar va xodimlar bilan ishlash. ECERS tizimi struktur va jarayon sifatini baholashning samarali vositasi hisoblanadi.[2:89]

CLASS (Classroom Assessment Scoring System) tizimi pedagog-bola o'zaro ta'siri sifatini baholashga ixtisoslashgan. Bu tizim uchta asosiy domenni o'rganadi: hissiy qo'llab-quvvatlash, sinfni boshqarish va ta'limiy qo'llab-quvvatlash. CLASS tizimi jarayon sifatini baholashda yuqori darajada ishonchli va valid vositadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, CLASS shkalasi bo'yicha yuqori ball olgan pedagoglar ish olib boradigan guruhlardagi bolalar yaxshiroq rivojlanish natijalari ko'rsatadilar.

OECD mamlakatlari tajribasini umumlashtirgan "Starting Strong" tadqiqotlar seriyasi maktabgacha ta'lim sifatining uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatdi. Tadqiqotlar yuqori sifatli maktabgacha ta'limning bolalarning nafaqat maktabgacha, balki maktab yoshidagi va hatto kattalar hayotidagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan EPPE (Effective Provision of Pre-School Education) loyihasi yuqori sifatli maktabgacha ta'limning bolalarning o'n bir yoshgacha bo'lgan rivojlanishiga ijobiy ta'sirini kuzatdi.[3:115]

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, sifatli maktabgacha ta'limning bir necha umumiy xususiyatlari mavjud. Birinchidan, yuqori malakali va doimiy professional rivojlanuvchi pedagoglar. Ikkinchidan, bolalarning faol ishtirokini ta'minlovchi rivojlantiruvchi muhit.[4:93] Uchinchidan, individual ehtiyojlarni hisobga oluvchi moslashuvchan dasturlar. To'rtinchidan, oila va ta'lim tashkiloti o'rtasida mustahkam hamkorlik. Beshinchidan, doimiy monitoring va sifatni yaxshilash jarayonlari.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimining taraqqiyoti uchun bir necha strategik yo'nalishlar belgilanishi lozim. Kadrlar tayyorligi va professional rivojlanish tizimini takomillashtirish birinchi navbatdagi vazifadir. Malaka oshirish kurslari nazariy ma'lumotlar bilan cheklanmasdan, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha master-klasslar, treninglar va amaliy seminarlar tashkil etish zarur. Muassasa ichida mentorlik va ko'yching tizimini yaratish tajribali pedagoglarning bilim va tajribasini yosh mutaxassislarga uzatishga yordam beradi. Pedagoglarning

o'z-o'zini rivojlantirish motivatsiyasini oshirish uchun rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Moddiy-texnik bazani zamonavilashtirish ikkinchi muhim yo'nalishdir. Rivojlantiruvchi predmet-makon muhitini yaratish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi zarur. Har bir guruh xonasida bolalarning turli faoliyat turlarini amalga oshirishi uchun maxsus zonalar ajratilishi kerak. Zamonaviy didaktik materiallar, o'yin jihozlari va texnik vositalar bilan ta'minlash sifatni oshirishning zaruriy shartidir. Bolalar adabiyoti fondini boyitish va muntazam yangilash bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonini zamonavilashtirish uchinchi strategik yo'nalishdir. Bolalarning faol, tadqiqotchilik va loyihaviy faoliyatiga ko'proq imkoniyat yaratish zarur. An'anaviy frontal mashg'ulotlar ulushini kamaytirish va individual hamda kichik guruhli ish shakllarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Har bir bola uchun individual ta'lim marshrutini ishlab chiqish individual yondashuvni amalga oshirish vositasidir. Inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish to'rtinchi muhim yo'nalishdir. [5:56]Ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol ishtirokchisi sifatida jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy aloqani ta'minlash zamonaviy oilalarning ehtiyojlariga javob beradi. Oilaviy ta'lim loyihalarini amalga oshirish ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Ota-onalar uchun pedagogik ma'lumotlar va konsultatsiyalar tizimini tashkil etish ularning pedagogik savodxonligini oshiradi. Sifat monitoring tizimini joriy etish beshinchi strategik yo'nalishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini muntazam baholash uchun yagona mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur. Yarim yillik monitoring o'tkazish o'z vaqtida muammolarni aniqlash va ularni hal etish imkonini beradi. Baholash natijalari asosida tuzatuvchi tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish monitoring tizimining samaradorligini ta'minlaydi. Monitoring jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki shaffoflik va ob'ektivlikni kafolatlaydi.

XULOSA. Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash ko'p omilli va murakkab vazifa bo'lib, struktur, jarayon va natija komponentlarining uyg'unlikda rivojlanishini talab qiladi. Sifat tushunchasi statik emas, dinamik xarakterga ega bo'lib, doimiy takomillashuv va yangilanishni nazarda tutadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti yuqori malakali pedagoglar, rivojlantiruvchi muhit, ilg'or pedagogik texnologiyalar va oila bilan yaqin hamkorlik asosida qurilishi kerak. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, sifatli maktabgacha ta'lim bolalarning kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatiga muhim hissa qo'shadi. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'ri yo'nalishda borayotganligini tasdiqlaydi, ammo yana ko'p ishlar amalga oshirilishi zarur. Kadrlar malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ota-onalarni faol jalb etish va monitoring tizimini yaratish takomillashtirish uchun ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan sifat mezonlari tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ob'ektiv baholash va doimiy takomillashtirish uchun amaliy vosita bo'la oladi. Ushbu mezonlarni amalda qo'llash milliy maktabgacha ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish va har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim sifati muammosi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga etishi uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. Harms T., Clifford R.M., Cryer D. Early Childhood Environment Rating Scale (ECERS-3). – New York: Teachers College Press, 2015.

3. Pianta R.C., La Paro K.M., Hamre B.K. Classroom Assessment Scoring System Manual. – Baltimore: Paul H. Brookes Publishing, 2008.
4. OECD. Starting Strong: Key OECD Indicators on Early Childhood Education and Care. – Paris: OECD Publishing, 2017.
5. Sylva K., Melhuish E., Sammons P. et al. Early Childhood Matters: Evidence from the Effective Pre-school and Primary Education Project. – London: Routledge, 2010.

